

**MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLAR QABUL QILISHDA  
E-QAROR ELEKTRON TIZIMINING O'RNI****Aliqulov Komiljon Urol o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi huquq fani o'qituvchisi.

**94-462-57-73 komilaliqukov93@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14562641>**

*Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida Mahalliy davlat hokimiyati organlari qaror qabul qilish jarayoni, qaror qabul qilishda E-qaror electron tizimining ahamiyati, shuningdek, uning afzalliklari yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: Mahalliy davlat hokimiyati, E-qaror elektron tizimi, ekspertiza, Tartibga solish gilotinasi, mahalliy davlat hokimiyati qarorlari, "Elektron hukumat".*

**THE ROLE OF THE E-DECISION ELECTRONIC SYSTEM IN DECISION-MAKING  
BY LOCAL GOVERNMENT BODIES**

*Abstract. This article discusses the decision-making process of local government bodies in the Republic of Uzbekistan, the importance of the E-decision electronic system in decision-making, as well as its advantages.*

**Keywords:** Local government, E-decision electronic system, expertise, Regulatory guillotine, local government decisions, "Electronic government".

**МЕСТО ЭЛЕКТРОННОЙ СИСТЕМЫ «Е-РЕШЕНИЕ» В ПРИНЯТИИ РЕШЕНИЙ  
ОРГАНАМИ МЕСТНОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ**

*Аннотация. В данной статье описан процесс принятия решений органами местного самоуправления в Республике Узбекистан, значение электронной системы принятия решений, а также ее преимущества.*

**Ключевые слова:** местный государственный орган, электронная система «Е-решение», экспертиза, Регуляторная гильотина, решения местного государственного органа, «Электронное правительство».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Bugungi kunda jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni samarali yechish, keng ko'lamlari islohotlarni izchil davom<sup>1</sup> ettirish zarurati davlat boshqaruvi sohasida mutlaqo yangi tizim yaratishni taqozo etmoqda" degan

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagи PQ-5025-son "Tartibga solish ta'sirini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/docs/5331912>;

fikrlari asosida ijro hokimiyati organlarida samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish borasida bir qancha vazifalar belgilangan edi:

- 1) Mahalliy davlat hokimiyati organlarida “Elektron hukumat” tizimini joriy etish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish;
- 2) Mahalliy davlat hokimiyati organlarida qaror qabul qilish jarayonini tizimlashtirish;
- 3) Mahalliy davlat hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlari samaradorligini baholashda jamoatchilik nazorati tizimini joriy etish.

Qaror qabul qilish jarayonini ta'minlash, ya'ni aynan, kerakli axborotni kerakli vaqtida va kerakli joyga taqdim etish - raqamlashtirish tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois ham qaror mohiyati, uni qabul qilish jarayoni, qaror qabul qilishning barbod bo'lishi tashkilotning axborot tizimi faoliyatiga, u yerda qo'llaniladigan texnologiyaga sezilarli ta'sir qiladi va hatto axborot tizimining butun boshli sinfi qaror qabul qilish tizimini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi<sup>2</sup>.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rahbar intellektual ish uchun o'z ish vaqtining 29% ni sarflar ekan, qolgan qismidan esa (71%) samarasiz foydalanadi. Boshqaruv qarorini qabul qilish uchun katta hajmdagi qayta ishslash natijasi bo'lgan axborot zarur. O'sib kelayotgan axborot oqimi tufayli va murakkab boshqaruv mexanizmining elementi sifatida muassasa xodimining strategik qarorlarni tayyorlash va qabul qilishga vaqt qolmaydi.

Bunda ish yuritishda innovatsiyalarni joriy etishning asosiy uch qoidasini taklif etilishi mumkin. Topshiriqni kim, qachon, qayerda bajarishi, axborotlarni qanday qilib to'plash va umumlashtirish masalalariga aniqlik kiritadi:

1. Topshiriqlarning ijrosi emas, natijasini ta'minlash lozim. Buning uchun jarayon alohida ixtisoslashgan topshiriqlarga ajaratilmasdan, alohida shaxs yoki guruh tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash kerak.

2. Jarayonni takomillashtirish uning ijrochilari tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Natijada topshiriq jarayonga va uning maqsadiga bevosita aloqador bo'lgan xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Axborotni qayta ishslash natijalarini axborot to'plangan jarayonga joriy etish kerak, ya'ni axborot to'plagan xodimlar uni o'zi qayta ishlashi kerak.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarni tayyorlashda hanuzgacha ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yilishi kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida loyiha ishlab chiquvchilarning ortiqcha sarson bo'lishi, qo'shimcha hujjat aylanishiga va ortiqcha vaqt sarf qilinishiga sabab bo'lmoqda.

<sup>2</sup> Davlat hokimiyati organlarida strategik qarorlari qabul qilishda axborot tizimlarini-qo'llash.  
<https://cyberleninka.ru/article/n/mahalliy>.

Mazkur muammolar qarorlarning qabul qilinish jarayoniga nisbatan sodda va qulay yondashuvni taqozo etardi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi PQ-4551-son "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini taminlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori"da mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining ochiqligini taminlash bo'yicha bir qancha vazifalar belgilandi. Unga ko'ra:

hokimliklar faoliyatining ochiqligini taminlash maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish;

mahalliy hokimliklar tomonidan fuqarolar va tadbirkorlik faoliyatiga taalluqli barcha hujjatlarni tayyorlash, qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, ularga takrorlanmaydigan maxsus raqam berish va avtomatik tarzda elon qilishni nazarda tutuvchi avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish;

jismoniy va yuridik shaxslarga yer ajratish haqidagi hujjatlar qabul qilinganidan keyin bir kun muddatda tegishli hokimliklarning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilib borish tartibini joriy qilish<sup>3</sup>.

Ushbu qarorning ijrosini taminlash va noqonuniy hujjatlar qabul qilinishining oldini olish, hokimliklar faoliyati ochiq va oshkoraligni ta'minlash, sohaga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020-yil 14-aprelda 218-son "Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 22.06.2021-yildagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga "E-qaror" elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 390-son qarorni qabul qildi.

Ushbu qaror asosida 2021-yil 1-iyuldan boshlab respublikaning barcha darajadagi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida "E-qaror" elektron tizimi joriy etildi. Ushbu qarorga muvofiq 1-iyuldan boshlab quyidagi qoidalar o'rnatildi:

- barcha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlari, shu jumladan, xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan qarorlari va farmoyishlarini ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish, ro'yxatga olish va e'lon qilish "E-qaror" elektron tizimi orqali amalga oshirilishi;

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini taminlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2019-y., 07/19/4551/4162-son

- "E-qaror" elektron tizimini chetlab o'tgan holda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli qarorlari va farmoyishlarini qabul qilishga yo'1 qo'yilmaydi<sup>4</sup>. Bunday hujjatlar yuridik kuchga ega emas hamda u qabul qilingan paytdan etiboran hech qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmasligi;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining tartibga solish ta'sirini baholash "E-qaror" elektron tizimidan foydalangan holda amalga oshirilishi.

Ushbu qarorda quyidagilar tasdiqlandi:

- Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlarini "E-qaror" elektron tizimi orqali ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish , ro'yxatga olish va e'lon qilish tartibi to'g'risidagi nizom;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini "E-qaror" elektron tizimi orqali ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish, ro'yxatga olish va e'lon qilish tartibi;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ tusga ega bo'limgan qaror va farmoyishlar loyihalarini "E-qaror" elektron tizimi orqali ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish, ro'yxatga olish va e'lon qilish tartibi;
- "E-qaror" elektron tizimini barcha mahalliy davlat hokimiyati organlarida tatbiq etish bo'yicha "yo'1 xaritasi"<sup>5</sup>.

Adliya vazirligiga Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda "E-qaror" elektron tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirib borish vazifasi topshirildi. Bunda "E-qaror" elektron tizimi orqali:

- qabul qilingan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlarini manfaatdor tashkilotlar va ijrochilarga yetkazishni tashkil etish;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun regulation.gov.uz portaliga belgilangan tartibda joylashtirish;

qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni davlat hisobiga olish va ularni O'zbekiston qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasiga yuborish nazarda tutildi.

"E-qaror" elektron tizimi orqali shu kungacha umumiyligida qabul qilingan hujjatlar soni 597185 tani tashkil qilmoqda. Shundan hozir amalda bo'lib turganlari 584436 tani tashkil qilmoqda. Ushbu hujjatlardan 7332 tasi normativ tusdagi qarorlar hisoblanadi. "E-qaror" elektron tizimi ishga tushirilishi hokimliklar qarorini ishlab chiqish va tegishli tashkilotlar bilan kelishishga ketadigan vaqt 2 barobarga qisqardi. Hokim qarorlariga "tartibga solish gilotinasi" qo'llanildi.

<sup>4</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.06.2021-y., 09/21/390/0588-son, 28.07.2021-y., 09/21/469/0718-son

<sup>5</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.06.2021-y., 09/21/390/0588-son, 28.07.2021-y., 09/21/469/0718-son

Natijada hokimliklarning 4343 ta umummajburiy bo‘lgan qarorlari bir vaqtda bekor bo‘ldi, qarorlardagi takrorlanishlar va tafovutlar bartaraf etildi. Davlat hisobida turgan hokimliklarning umummajburiy qarorlari 70% ga kamaydi<sup>6</sup>.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Mahalliy davlat hokimiysi qarorlarini qabul qilish uchun o‘rnatalgan “E-qaror” elektron tizimi o‘ziga xos qulayliklarni keltirib chiqardi.

Birinchidan, Qonuniylik va qonun ustuvorligi jihatidan:

—qabul qilingan hokim qarorlarini noqonuniy o‘zgartirib qo‘yish yoki qalbakilashtirish imkoniyatiga barham berildi;

—hokim qarori loyihasini ishlab chiqishdan boshlab qabul qilishgacha bo‘lgan barcha jarayonlar adliya organlari tomonidan monitoring qilib borilmoqda;

—tizimga barcha vazirlik va idoralardan turli ekspertizalardan o‘tkazilgan 100 ga yaqin hokim qarorlarining namunalardan foydalanish imkonini bermoqda.

Ikkinchidan, hokimlar faoliyatida shaffoflik kuchaytirildi:

—“E-qaror” elektron tizimi orqali qabul qilingan har bir qarorga e-qaror.gov.uz saytidagi takrorlanmaydigan maxsus raqam berilmoqda va avtomatik tarzda e’lon qilinmoqda;

—hokimlikning norma ijodkorligi jarayoni ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatalmoqda.

Uchinchidan, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etildi. Bu esa hokimlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni kelishish, ro‘yxatga olish va ularga takrorlanmaydigan maxsus raqam berish jarayonlari elektron tarzda amalga oshirilishi mehnat unumdarligiga xizmat qiladi.

Eng muhimmi, “E-qaror” elektron tizimini respublikamizning barcha hokimliklarida joriy etish orqali:

fuqarolarning jamoatchilik nazoratidagi o‘rni va roli oshmoqda;

fuqarolarning mahalliy norma ijodkorligi jarayonida faol ishtiroti ta’milnomoqda;

hokimliklar faoliyati va ish yuritushi shaffoflashmoqda;

hokimliklar tomonidan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari poymol bo‘lishi, davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari tizimida korrupsiya, boshqa huquqbazarliklar sodir etilishi uchun sharoit yaratadigan, shuningdek tadbirkorlar uchun asossiz xarajatlar qilishga olib keluvchi ortiqcha ma’muriy hamda boshqa cheklavlarni joriy etadigan qoidalar va normalar o‘rnatalishining oldi olinmoqda.

<sup>6</sup> <https://www.minjust.uz/upload/iblock/2022year/february/11/Yil-sarhisobi-2021.pdf>

**REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) // Qonunchilik malumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son; Qonunchilik malumotlari milliy bazasi, 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son
4. "O'zbekiston Respublikasi mahalliy organlarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 4-yanvaridagi Konstitutsiyaviy qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 3-son, 146-modda.
5. "Mahalliy davlat hokimiysi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1993- yil 2-sentabr qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 321- modda.
6. Axmedshayeva M.A. Hozirgi zamon davlati va asosiy huquqi nazariyasi muammolari. – Toshkent: TDYUI, 2008. – 329 b.
7. Axmedshayeva M.A. Davlat hokimiysi tizimida ijro hokimiysi / Mas'ul muharrir: yu.f.d. prof. Z.M.Islomov. – Toshkent: TDYUI, 2013. – 114 b.
8. <http://www.press-service.uz>
9. <http://www.lex.uz>
10. <http://www.huquqburch.uz>
11. [www.insonvaqonun.uz](http://www.insonvaqonun.uz)